



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINF DAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

*Termiz davlat pedagogika
Instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti
boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs
21-03 – guruh talabasi
Sultanova Tursunoy Ho'sinboy qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsad va xususiyatlari, ularni bilimlarini yanada mustahkamlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, mashg'ulot, matematika, bilim, sinf.

Abstract: This article describes the purpose and features of organizing extracurricular activities in mathematics for elementary school students, to further strengthen their knowledge, and to spend their free time meaningfully.

Key words: Primary class, activity, mathematics, knowledge, class.

Аннотация: В данной статье описаны цель и особенности организации внеурочной деятельности по математике для учащихся начальной школы, для дальнейшего закрепления их знаний, содержательного проведения свободного времени.

Ключевые слова: Начальный класс, обучение, математика, знания, класс.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish deganda, o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, dars mobaynida olayotgan bilimlariga qo'shimcha tarzda yanada bilim berish, o'rganayotgan bilimlarini chuqurroq o'rganish, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish va hokoza bilimlarni o'rganishni shakllantirish tushuniladi." Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi"- degan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Kelajak avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O'quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, ximiya va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashishi uchun, boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lif-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi

bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta’sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda o‘quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘sishma dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtida barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruuhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko‘proq ikkinchi turdagи ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. O‘quvchilarda matematika va uning tadbiqlariga qiziqish uyg‘otish;
2. O‘quvchilarning matematikadan dastur bo‘yicha bilimlarini kengaytirish;
3. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash;
4. O‘quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish;
5. O‘quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmati haqidagi, matematika matabining dunyo fani orasidagi roli xaqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

1. Qiziqarli matematika soatlari va minutlari;
2. Matematik to‘garaklar uyushtirish;
3. Matematika gazetasi chiqarish;
4. Ekskursiya o‘tkazish;
5. Matematik burchak tashkil qilish;
6. Matematika kechalari o‘tkazish;
7. Boshlang‘ich maktablarda matematika olimpiadasi o‘tkazish.

Bunday mashg‘ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo‘lishi kerak. Bu masalalarda qiziqarli matematikaga doir ko‘rsatma quollar sanash jadvallari, figuralarini sanash, plakat formasidagi o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba’zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1.O‘z mazmuni bo‘yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o‘quvchilarning kuchiga mos bo‘lishi kerak.

2.Sinfdan tashqari ishlar imkonlari boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ish turi matematika to'garagini tashkil etishda o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlariga qarab tanlab olinar ekan. Matematikadan to'garaklarni tashkil etishda qiziqarli misol va masalalardan, mantiqiy masalalardan foydalanish lozim. Sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bilan (bolalar bilan joylarda) maqsadni ko'zlovchi, barqaror amaliy natijaga olib keladigan ularni havaslarini orttiradigan Amalda bajariladigan ishlarni olib borishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari Ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi mumkin.

A)Ommaviy ishlar; (musobaqalar, ko'rik tanlovlari, kechalar, ertakliklar, Ekskursiyalar va hokazolar); B) To'garak ishlar (yosh matematiklar);

C) O'qituvchilarning mustaqil mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish (bunda O'quvchilar fan va texnikaning biron soxasini o'rGANISH uchun mustaqil ishlaydilar va hokazo).

Maktabdagagi o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari. Matematika to'garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To'garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to'garagida qatnashadigan o'quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi va o'quvchilar to'garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan nafaqat boshqa fanlardan faqat darsliklardagi misol va masalalardan cheklanib qolmay sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini va o'rganayotgan bilimlarini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning savodxonligini oshiradi. Ularning erkin fikrlashini, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har bir sinf doirasida ikkita guruuhga bo'lib tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki sinfda past o'zlashtiruvchi hamda yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar bo'ladi. Ularni bilimlarini o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlar berib boriladi.



CANADA



CANADA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N. Boltayev, O. Qodirov “Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar” Toshkent “O’qituvchi” 2012.
2. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo’latova M.I. Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO «Jahon - Print», 2011.
3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang’ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang’ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. “TDPU” 2005 yil.